

O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZIMINI RIVOJLANTIRISHIGA
TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

*Xoliqov Xasanjon Imomnazar o'g'li,
Cho'liboyev Islom Ilhom o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti
rasulovimomnazar@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ziyorat turizmi va uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, ziyorat, turist, turizm sohasi, tarixiy obidalar, diniy maskanlar.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ
ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В данной статье представлена информация о паломническом туризме в Узбекистане и факторах, влияющих на его развитие.

Ключевые слова: туризм, паломничество, турист, сфера туризма, исторические памятники, религиозные места.

FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF
PILGRIMAGE TOURISM IN UZBEKISTAN

Annotation: this article provides information on pilgrimage tourism in Uzbekistan and factors affecting its development.

Keywords: tourism, pilgrimage, tourist, tourism industry, historical monuments, religious settlements.

Turistik resurslarning turlari ko'p bo'lib, ulardan turizmning qadimiy va faol turlaridan biri **ziyosat turizmi** hisoblanadi. Mazkur ziyorat turizmi tarmog'ining geografiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, dunyoning turli mamlakatlarida va mintaqalarida ziyorat joylarning turistlarni o'ziga betakrorligi, tarixiyligi, jozibas va insonlarning diniy e'tiqodi sababli keng arelda jalb qilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Qadimdan din bo'lgan e'tiqod tufayli ziyorat turizmi rivojlanib kelgan bo'lib, hattoki bugungi kunda ham turizmning eng faol yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [2; 3-b].

Ziyorat turizmi hozirgi kunda keng tarqalgan turizm sohasi hisoblanadi. Ziyorat turizmi mohiyatan ziyoratgohlarni ziyorat qilish jarayonidir. Odatda, ziyoratlar diniy maqsadlar uchun kunlar, haftalar yoki hatto oylar davomida olib boriladigan uzoq safarlarni tashkil qiladi. Ular butun bir sayohatni o'z ichiga olib, e'tiqodli odamlar o'z dinlari bilan munosabatlarini mustahkamlash uchun boradigan maskanlardir. Ziyorat turizmi tashrif buyurish mumkin bo'lgan shahar yoki ma'lum hududdagi masjidlar va

cherkovlarga yoki boshqa diniy diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurishni o'z ichiga olishi mumkin Ziyorat turizmi turistlarni diniy munosabat va urf-odatlarga erishish uchun to'liq yoki kuchli turtki beradigan turizm turidir. Ushbu maqolada ziyorat turizmining tavsifi va uning mohiyati, hozirgi kunda qay darajada ahamiyat kasb etishi haqida to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki bugungi kunda yer yuzida har yili muntazam ravishda 200 milliondan ortiq turistlar aynan ziyorat maqsadida o'zlari uchun muqaddas hisoblangan dunyodagi turli ziyoratgoh maskanlariga borib, ziyorat turistik sayohatlarga chiqmoqdalar. Mazkur tarmoq ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak yiliga 150 million xristianlar, 50 million musulmonlar, 40 million buddistlar, 30 million induistlar va boshqa din vakillari ruhan poklanish, buyurilgan amallarni bajarish, muqaddas maskanlarni ziyorat qilish maqsadida sayohatga chiqadilar.

Turizm ko'p qirrali va muhim ijtimoiy hodisa. Undan mohirona foydalanish mamlakatlar iqtisodiyotining yangi jabhalarini rivojlantirishga imkon tug'diradi. Turizm so'zi (fransuzcha: our-sayr, sayohat), sayyohlik-sayohat (safar) qilish, faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketish (sayohat qilishi) tushuniladi. Keng ma'noda kishilarni hayotda harakatda bo'lishlari [2; 4-b].

Mamlakatimiz madaniy va ziyorat turizmi industriyasi, logistikasi sohasida o'tkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati olib borgan maqsadli yo'naltirilgan strategik turistik yagona siyosat, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bu sohada chiqarilgan farmonlari, hamda Respublika turistik tashkilotlarining olib borayotgan izlanishlari va amaliy faoliyatlari natijasida ziyorat turizmi industriyasi va logistikasi yanada rivojlanmoqda. Ko'p ukladli turizm industriyasi iqtisodiyoti vujudga keldi, har xil mulk shakliga asoslangan turistik firma va tashkilotlar shakllandi. Ziyorat turizmida logistik boshqaruvi samaradorligini oshirishning asosiy maqsadi belgilab olindi. Logistika ta'minot tizimidagi material resurslarni optimallashtirish, ishlab chiqarish bog'larining xom ashyo, materiallar, detallar, yarim tayyor mahsulotlarga bo'lgan talabini samarali qondirish va tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib berish uchun qilinadigan barcha harakatlarni hisobga olgan holda umumiy harajatlarni kamaytirishdan iborat bulib unda xorijiy tajribalardan keng fodalaniymoqda [2; 12-b].

O'zbekiston ziyorat turizmi sohasining rivojlanishida Saudiya Arabstoni va boshqa davlatlar qatorida salmoqli saloxiyatga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Takidlash joizki, ayniqsa Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. Musulmon olamida bu ziyoratgoh Makka va Madina shaharlaridan keyin eng muhim va ahamiyatli sajdagoxlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunning muhim masalalaridan biri ziyoratchi turistlarga infratuzilmalarni shakillantirish bilan ularga qulay shart-sharoit yaratishdir. Xorijiy mamlakatlar fuqorolarining, ziyoratchi turistlarning mamlakatimiz ziyoratgohlariga va boshqa turistik ob'ektlariga ortiqcha qiynchiliklarsiz kelib ketishlarini ta'minlash, samarali logistika tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha hukumatimiz tomonidan tegishli choralar ko'rilmoqda. Bu ko'plab noyob tabiat obektlarining, boy diniy ziyoratgohlarning, madaniy va tarixiy meroslarining mavjudligi bilan bog'liqdir. Davlatimiz, hukumatimiz tomonidan diniy qadriyatlarimizga buyuk ajdodlarimiz qo'nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta'mirlashga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Vatanimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar o'zining samarali natijalarini ko'rsatmoqda. Ayniqsa Prezidentimiz Shovkat Mirziyoyev tomonidan O'zbekistonda turizmni tezkor rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi farmoni sohaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublika va xududiy ziyorat turizmi industriyasi va logistikasi sohasida na-faqat sifat o'zgarishlari bo'lmay, balki miqdoriy o'zgarishlar ham tez sur'atlar bilan sodir bo'lmoqda. Masalan statistik ma'lumotlarga ko'ra so'ngi 15 yillikni oladigan bo'lsak xorij fuqorolarining Vatanimizga tashrifi 15.5 marotaba ortdi. 2002 yildagi 442.1 ming kishidan 2017 yilda 2847,9 ming kishiga yetdi. O'zbekiston fuqorolarining chet elga tashrifi 2017 yilda 5182,5 ming kishini tashkil etdi, bu o'z- navbatida 2002 yilga nisbatan 6,5 barobar ortgan. O'zbekiston ziyorat turizmi industriyasi va logistikasi sohasida bozor munosabatlariga mos bo'lgan boshqaruv tizimiga katta yo'l ochib berilmoqda. Bozor munosabatlarining ziyorat turizmi industriyasiga, logistikasiga tobora chuqurroq mustahkamlanib borishi jarayonlardagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlar hozirgi zamon amaliy iqtisodiy nazariyasini yanada ilmiy tahlil qilish va o'rganish zaruriyatiga sabab bo'lmoqda. Ziyorat turizm logistikasi, industriyasi rivojlanishining milliy, xududiy xususiyatlari, turlari va vazifalarini chuqurroq o'rganishga va bu sohada to'plangan tajribalarni xalqaro turizm industriyasi menejmenti, logistikasi nuqtai nazari negizida talqin qilib, umumlashtirishni, rivojlantirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmi industriyasini takomillashtirish, logistik xizmatlarni rivojlantirish, uning tarixi, rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish turizm sohasida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [2; 13-b].

Bilamizki, O'zbekiston turistik resurslarining boyligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda diniy ziyorat turizmi aziz qadamjolarini ziyorat qilish maskanlariga juda boy hisoblanadi. Markaziy Osiyoda, xususan, vatanimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari ko'plab mavjud bo'lib, jahon turizmini o'ziga jalb etadi. Ko'pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qayta ta'mirlanib, asl holatiga qaytmoqda. Jahonga tanilgan allomalarimizdan Bahoviddin

Naqshbandiy, G'ijdivoniy, Imom al-Buxoriy, Maxdumi A'zam, Imom al-Moturidiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota, Shayx Hovand Tohur kabi ko'plab aziz avliyolar, imomlar maqbaralari musulmon ahli ziyorat qiladigan va ma'naviy ruxlanadigan maskanlarga aylantirildi. Ta'kidlash 16 joizki, ayniqsa, Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. Musulmon olamida bu ziyoratgoh muhim va ahamiyatli ziyoratgoh hisoblanadi. Bugungi kunning muhim masalalaridan biri ziyoratchi turistlarga infratuzilmalarni shakllantirish bilan ularga qulay shartsharoit yaratishdir. Xorijiy mamlakatlar fuqorolarining, ziyoratchi turistlarning mamlakatimiz ziyoratgohlariga va boshqa turistik ob'ektlariga ortiqcha qiyinchiliklarsiz kelib ketishlarini ta'minlash, samarali reklama tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha hukumatimiz tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda, choralar qo'llanilmoqda [3].

O'zbekiston sayyohlik ko'lemi va tarixiy qadamjolari ko'pligi bo'yicha dunyodagi yetakchi o'n mamlakat qatoridan joy olgan. Mamlakatimizda to'rt mingdan ziyod tarixiy va madaniy yodgorlik bor. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlari YUNYESKOning jahon merosi durdonalari ro'yxatiga kiritilgan. Mamlakatimizdagi mustahkam tinchlik va barqarorlik, o'zaro mehroqibat va hamjihatlik muhiti, dunyoga mashhur o'zbekona mehmondo'stlik jahon sayyohlarini o'ziga tobora keng jalb etmoqda. Mutaxassislar fikricha, mamlakatning turistik imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda turizmni ziyorat rojlantirish muhim ahamiyatga ega. Zero, har qanday yangi turistik mahsulotga, avvalo, mahalliy sayyohlarda qiziqish uyg'otib, so'ngra uni xorijiy sayyohlarga taqdim etish yuksak samaralar beradi [2;149-b].

Ziyorat diniy turizmning bir turi sifatida odamlarning muqaddas qadamjolarga sayohat qilish sayohatidir. Muqaddas joylar Markaziy Osiyodagi musulmonlarning diniy hayotida muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ziyorat turizmi musulmonlar uchun muqaddas Buxoro va Samarqand shaharlari bo'lganligi sababli salmoqli rivojlanish salohiyatiga ega. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar uchun bu qadimiy hududlarda ko'plab muqaddas maskanlar mavjud. Samarqandning 2750 yillik tarixga ega bo'lib, u Rim, Afina, Bobil bilan tengdoshdir. Shoir va tarixchilari uni haqli ravishda "Yer yuzining sayqali" deb atashgan. Samarqanddagi muhim ziyoratgoh bu shahardan 12 km uzoqlikda joylashgan Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasidir. Bu erda hadis ilmining asoschisi Ismoil Buxoriyning qabrida masjid qurilgan. XVI asrda qabr ustida kichik maqbara qad ko'targan va yonida masjid qurilib, chinorlar o'tqazilgan. 1998-yilda alloma tavalludining 1225 yilligi nishonlanishi munosabati bilan Qadimiy maqbara o'rnida yodgorlik majmuasi barpo etildi. Ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida majmuadagi barcha ob'ektlarni to'liq demontaj qilish va atrofini obodonlashtirish asosida faqat besh asrlik chinorlar va markaziy maydondagi buloq saqlanib qolinib, yangi majmua qurishga qaror qilindi. Yaqin

kunlarda majmua oldida 313 ta yotoqxonaga, 76 ta oilaviy mehmon uyi va bir vaqtning o'zida 449 nafar mehmonni qabul qila oladigan choyxonaga ega zamonaviy mehmonxonalar rejashtirilgan. Shuningdek, ziyoratchilarga qulaylik yaratish maqsadida majmua hududida ikkita avtoturargoh, savdo shoxobchalari va boshqa infratuzilma obyektlari qurilmoqda.

Imom al-Buxoriyning tug'ilgan vatani 2500 yillik Buxoro islom olamida Makka, Madina, Bag'dod, Mozori Sharif, Shom va Quddus bilan birga sharif shahrlar qatoriga kiradi. Muqaddas Buxoroning g'oyaviy asosini so'fiylik ta'limoti tashkil etadi. Buxoroda Markaziy Osiyoning so'fiy obidalari eng yorqin, rang-barang va ko'p sonli me'morchiligi aks etgan. Yetti pir maqbaralari ko'plab musulmonlarning ziyoratgohidir.

O'zbekistonda ziyorat turizmi rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan sabablardan biri, turli mamlakatlardan kelgan musulmonlar ya'ni ziyoratchilarning O'zbekistonning muqaddas joylari haqida yetarli darajada xabardor emasligidir. Ikkinchi sabab, Respublikada tarixiy, ekologik, madaniy, arxeologik, etnografik, ma'rifiy turizmga asosiy e'tibor berilib, ziyorat turizmini tashkil etishga ixtisoslashgan tur operatorlar haligacha yetarlicha emas. Uchinchi sabab ko'plab yengilliklar berilishiga qaramasdan viza berish bilan bog'liq muammolar. To'rtinchi sabab - aviachiptalarning yuqori narxlari, aeroportda xizmat ko'rsatish, bojxona nazorati, musulmon ziyoratchilar uchun ixtisoslashtirilgan ovqatlanish sektori rivojlanmaganligi, xalqaro to'lov tizimlarining kredit kartalaridan foydalanish bilan bog'liq muammolar mavjud [1].

Yoqorida keltirilgan muammolarni hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonga ko'ra kelgusi yillarda ziyorat turizmini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab olindi:

Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, ziyorat turizmi aslida xalqlar va shaharlar tarixini modernizatsiya qilish, shaharlarning tarixiy qiyofasining buzilishi turizmning rivojlantirish istiqboliga tahdid solmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z chiqishlarida xorijiy davlatlarning tajribasini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish borasida bir necha bor to'xtalib o'tdi. Darhaqiqat, tarixiy ruhni saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan va texnologik taraqqiyotga erishgan, har yili ziyorat turizmidan katta daromad oladigan boshqa mamlakatlar tajribasini sinchkovlik bilan o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-

tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

2.Xudoyorov A, Abdurasulov B. Ziyorat turizmida logistika (o`quv qo`llanma). "Mumtoz so'z". Toshkent-2019. 156 b.

3.Abdimo'Minov T.A., Toshpo'Latov Sh.M., & Cho'Liboyev I.I. (2022). TARIXIY VA MADANIY OBYEKT LARNING TURISTIK IMKONIYATLARI (JARQO'RG'ON MINORASI MISOLIDA). Экономика и социум, (12-1 (103)), 14-18.

4.Abdimo'Minov T.A., & Xoliqov X.I. (2024). O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI. Экономика и социум, (5-2 (120)), 6-11.

5.Abdimo'Minov T.A., & Xoliyorov H.O. (2024). VAXSHIVOR HUDUDIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. Экономика и социум, (5-2 (120)), 12-14.